

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



ZIYORAT TURIZMI TIZIMINING XUSUSIYATLARI VA UNING ELEMENTLARI

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti. Toshkent, O‘zbekiston.

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-6868-1770>

E-mail: zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a35

Annotatsiya

Maqolada ziyorat turizmi tizimining xususiyatlari va uning asosiy elementlari keltirilgan. Muallif ziyoratning mohiyati va ahamiyatini turizm kontekstida o‘rganib, tizimning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, yo‘nalishlar, ziyoratgohlar, infratuzilma va tashkiliy jihatlarni tahlil qiladi. Bunda tarixiy va diniy sharoit, ziyoratchilarning motivatsiyasini shakllantirish, ularning xulq-atvor xususiyatlari va turizm sohasi rivojiga ta‘siriga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, turistik resurslar, moddiy-madaniy meros, turizm tizimi, turistik elementlar, turoperator, turagent, turizm industriyasi, turistik infratuzilma, turistik mahsulot, tur, ziyoratgoh, sayyoh.

CHARACTERISTICS OF ZIYARAH TOURISM SYSTEM AND ITS ELEMENTS

Sokhibova Muslimakhon

PhD student of Tourism development institute under the Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan.

Abstract

The article presents a characterization of the pilgrimage tourism system and its main elements. The author explores the essence and significance of pilgrimage in the context of tourism, analyze the key components of such a system, including routes, places of worship, infrastructure and organizational aspects. Particular attention is paid to the historical and religious context, the formation of pilgrims' motivation, their behavioral characteristics and impact on the development of the tourism industry.

Keywords: tourism, pilgrimage tourism, tourist resources, material and cultural heritage, tourism system, touristic elements, tour operator, travel agent, tourism industry, tourism infrastructure, tourism product, tour, pilgrimage, tourist.

ХАРАКТЕРИСТИКА СИСТЕМЫ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ЕЕ ЭЛЕМЕНТЫ

Сохибова Муслимахон Холматжон қизи

Докторант Научно-исследовательского института развития туризма При Государственном комитете Республики Узбекистан по развитию туризма. Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

Статья представляет характеристику системы паломнического туризма и ее основных элементов. Автор исследуют сущность и значение паломничества в контексте туризма, анализируют ключевые компоненты такой системы, включая маршруты, места культа, инфраструктуру и организационные аспекты. Особое внимание уделяется историческому и религиозному контексту, формированию мотивации паломников, их поведенческим особенностям и влиянию на развитие туристической индустрии.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, туристские ресурсы, материальное и культурное наследие, система туризма, туристические элементы, туроператор, турагент, туристическая индустрия, туристская инфраструктура, туристический продукт, тур, паломничество, турист.

Kirish

Mamlakatda turizmning istiqbolli turlarining rivojlanishini ta'minlash uchun uning har bir elementi va turistik tizimning xususiyatlari mazmun-mohiyati, ularni boshqarish mexanizmlari, ular vositasida sohani rivojlantirish istiqbollari nazariy jihatdan tadqiq qilish talab qilinadi. Qayd etish lozimki, ziyorat turizmi tizimining elementlariga turistik resurslar va ziyorat turizmi faoliyati doirasida foydalanishi mumkin bo'lgan obyekt va jarayonlar kiritiladi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, mamlakatimizda turizm sektorini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro sayyohlar orasida yangi turistik manzil sifatida tanilib bormoqda. Respublikada mavjud turistik resurslarni samarali boshqarish uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlab olish lozim. Aynan shunday yo'nalishlardan biri ziyorat turizmi hisoblanadi.

Bugungi kunda hukumat tomonidan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Turizm iqtisodiyotning strategik sektorlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-20-oktabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqida ayni paytda O'zbekistonda 8 mingdan ortiq madaniy meros obektlari mavjudligi va ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshirish mo'ljallayotganini ta'kidladi [1]. Bu maqsadga erishish uchun esa ziyorat turizmi tizimining xususiyatlarini aniqlash, uning elementlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlardagi turizm tizimi, uning xususiyatlari va elementlari bilan bog'liq ilmiy qarash va yondashuvlar tahlil qilindi.

Xususan, T.V.Cherevichkoning “Turizm tizim sifatida: tadqiqot metodologiyasi” nomli tadqiqotida “Turizm tizimining obyekti turistik hudud hisoblanadi” deya ta'kidlagan [2].

Yu.Yu.Shvets “Turizm sektorining tizim sifatida tavsiflashning asosiy yondashuvlari” asarida turizm bozori subyektlari, turizm turlari, maqsadga ko'ra turizmning klassifikatsiyasini tahlil qilgan [3].

I.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.S.Safarovning “Turizm asoslari” darsligida turizmning tizim sifatidagi asosiy yo'nalishlariga oid tushuncha va atamalar tasniflangan [4].

Bundan tashqari bir qator olimlar ziyorat turizmning elementlariga doir tadqiqotlar olib borgan. Masalan, A.Babkin “Turizmning maxsus turlari” nomli asarida diniy va ziyorat turizmiga oid ilmiy qarashlarini bildirib o'tgan [5].

Y.V.Pecheritsa, Y.Y.Sharafanova “Ziyorat turizmi aspektlari” [6], L.V.Baylagasov, M.I.Goppa “Ziyorat turizmining klasifikatsiyasi haqida” [7] ilmiy maqolalarida ziyorat turizmidagi asosiy g’oya va tushunchalar, shuningdek uning klassifikatsiyasi haqida ta’rif berganlar.

Shu bilan bir qatorda, bir qator olimlar o’zlarining ilmiy tadqiqotlarida ziyorat turizmi muvaqqas ziyoratgohlarga tashrif buyurish, ulug’ ajdodlarga ehtirom ko’rsatish, ularning madaniy-me’moriy, tarixiy merosi bilan tanishish, xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda ishtirok etish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o’z ichiga olishini ta’kidlagan [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida kuzatish, tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy-nazariy mushohada va vaziyatli yondashuv usullaridan foydalanildi. Xususan, o’ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o’rganib chiqildi va tahlil etildi.

Tahlil va natijalar

Dastlab turizmga insonlarning doimiy yashash manzilidan boshqa manzilga borishi, harakatlanishi va vaqtincha bo’lishi sifatida yondashilgan. Ammo vaqt o’tishi bilan mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati o’zgarib bordi. Bugungi kunda jahon amaliyotida turizm atamasini ifodalashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistik komissiyasi tomonidan qabul qilingan va Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UN Tourism) tomonidan tasdiqlangan ta’irfdan foydalaniladi: “Turizm – dam olish, ishbilarmonlik va boshqa maqsadlarda ketma-ket bir yildan oshmagan vaqt mobaynida doimiy muhitdan boshqa manzillarga sayohat qiladigan va sayohat qilgan shaxslarning faoliyati hisoblanadi” [9].

Turizm biznesida mavjud xizmatlarga doimiy o’sib borayotgan talab taklifni rag’batlantiradi, shu sababli turizm bugungi kunga kelib jadal rivojlanib borayotgan va jahon iqtisodiyotining yuqori daromadli sektoriga aylandi. Hozirda mehmondo’stlik sanoati nafaqat mamlakat, balki ayrim mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, sababi soha bozor sanoati yo’nalishi bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanishning muhim jihatlari o’zida mujassam etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, turizmni iqtisodiy sektor sifatida tashkil etish, rejalashtirish, hamda sanoatni boshqarishni takomillashtirish uchun mamlakat va mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatini beruvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.


Bundan tashqari, turizm mamlakatning xalqaro miqyosda nufuzini oshirishning qudratli omilidir. Turizmning yaxlit tizim sifatida rivojlanishi davlat byudjetiga yuqori daromat keltirish bilan bir qatorda tashrif buyuruvchi sayyohlarni mamlakat tarixi, madaniyati, ma’naviy va diniy qadriyatlarini, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishtirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

Muayyan mamlakatda turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirishning dolzarbligi, birinchi navbatda, turizm faoliyatidan davlat byudjetiga tushadigan tushumlarni aniqlash bilan bog’liq bo’lib, bu turizmni klassifikatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Zamonaviy turizmni quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).

O’zbekiston Respublikasining “Turizm to’g’risida” gi 549-son Qonunida turizm 3 turga bo’linadi: kirish, chiqish va ichki turizm [10]. Hozirgi kunda xalqaro turizm kirish va chiqish turizmini o’zida mujassam etgan tizim bo’lib, milliy iqtisodiyotning yuksalishida muhim rol o’ynaydi.

Ma’lumki, ziyorat turizmi xalqaro miqyosdagi turoperator va turagentlik tashkilotlari uchun eng jozibali turlardan biriga aylandi. Mazkur tur mavsumiylik ta’sirini kamaytirish hamda turistik marshrutlarni avvaldan mukammal tayyorlash imkoniyatini oshiradi. Ziyorat turizmi davomida nafaqat muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy, tabiiy resurslar bilan


bog‘liq obyektlarga tashrif buyuriladi, balki turli din va aholi qatlamlari vakillari tashrif buyurilgan manzilning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlari bilan yaqindan tanishadi.



1-rasm. Turizmning asosiy belgilariga ko'ra tasnifi¹

Ziyorat turizmi tizimi ikkita asosiy quyi tizimni o‘z ichiga oladi (2-rasm): ijtimoiy hamda iqtisodiy va ular ziyorat turizmi tizimining turli elementlari kombinatsiyasidan iborat [11]. Ziyorat turizmi quyi tizimlarining o‘z maqsadlari mavjud va mazkur maqsadlar umumiy tizimning maqsadlari bilan uyg‘un hisoblanadi. Quyi tizimlari bir biri bilan o‘zaro bog‘langan va muvozanatlashtirilgan.

Ziyorat turizmi tizimining asosiy quyi tizimi ijtimoiy quyi tizim hisoblanadi. Unda turizm sohasidagi ijtimoiy munosabatlar sayyohlarning asosiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatda vujudga keladi.




2-rasm. Ziyorat turizmi quyi tizimlarining maqsadlari²

Ziyorat turizmining iqtisodiy quyi tizimi turistik bozor hisoblanadi. Turizm bozori ziyorat turizmi tizimi doirasida xizmatlar, tovarlar, turistik faoliyat, moliyaviy resurslar va axborotlarning erkin muomalasi sohasi sifatida talqin qilinadi.

Ziyorat turizmi tizimli obyekt sifatida bir-biri bilan ma‘lum bir aloqada bo‘lgan va yaxlit birlikni tashkil etuvchi turizm tizimi elementlarining tashkil etilgan majmuidir. Ziyorat turizmi tizimi ko‘p tuzilmali bo‘lib, elementlarining o‘zaro va tashqi muhit bilan ta‘siri tufayli faoliyat olib boradi.

Ziyorat turizmi elementlari doimiy rivojlanish va harakat holatida bo‘ladi. Muallif tomonidan ziyorat turizmi tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiritildi: ziyorat turizmi subyektlari, turizm jarayoni va ziyorat turizmi obyektlari (3-rasm).

Ziyorat turizmi subyektlari orasida sayyohlar alohida o‘rin egallaydi. Ularning o‘z ehtiyojlari va turni amalga oshirishga undagan motivlari ziyoratni belgilab beradi. [13] Turizm jarayoni esa ziyorat turizmi subyektlarining tur davomida amalga oshiradigan yoki amalga oshirishi umkin bo‘lgan turli xil faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ziyorat turizmi obyektlari esa turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, turistik resurslar majmuyidan iborat.



3-rasm. Ziyorat turizmi tizimining asosiy elementlari³

Ziyorat turizmi subyektlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ziyoratchilar;
- sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar va birlashmalar;
- ziyorat turizmi industriyasi xodimlari, shuningdek, turizm sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ijtimoiy guruhlar (turistik markaz va hududlardagi tub aholi);
- ziyorat turizmi sohasidagi notijorat tashkilotlar (ilmiy va ta‘lim tashkilotlari, tadbirkorlik birlashmalari, turistik soha xodimlari va boshqalar);
- turizm industriyasidagi yollanma ishchilar (ekskursiya gidlari, animatorlar, madaniyat mutaxassislari va boshqalar);
- turizm sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organi;
- davlat va xalqaro tashkilotlar, hamda ularning ixtisoslashgan idoralari (BMT, UN Tourism, UNESCO va boshqalar).

Ziyorat turizmi jarayonlari quyidagilar:

- Sayyohlarning tashrif buyurgan mamlakatida 12 oygacha bo‘lgan muddatda erkin harakatlanishi;
- Turistik faoliyat, turistlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari, sayyohlarning ma‘rifiy va madaniy darajasini oshirishga yordam beruvchi faoliyat turladi va boshqalar;

– Hokimiyat organlarining turistlar erkin harakatlanishini ijtimoiy tartibga solish hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi faoliyati;

– Xalqaro tashkilotlarning sayyohlikni xalqaro huquqiy tartibga solish sohasidagi faoliyati.

Ziyorat turizmi obyektlari majmui o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– Ziyorat turizmi resurslari;

– Ziyorat turizmi industriyasi obyektlari: turoperatorlar, turagentlar, joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish, axborot tizimlari va boshqalar;

– Turistik infratuzilma obyektlari: sayyohlarning sayohati va dam olishi uchun mo'ljallangan muhandislik, transport, ijtimoiy, innovatsion va boshqa infratuzilma obyektlari;

– Turistik harakatlar, turizmni davlat tomonidan tartibga solish faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar, atrof-muhit elementlari.

Ziyorat turizmi industriyasi – bu ziyorat turizmi uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hamda tashkilotlarning tarmoqlararo majmuasidir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– Ziyorat turizmiga oid xizmatlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;

– Turistik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi firmalar (turoperatorlar);

– Sayohat agentlari tomonidan tuzilgan turizm mahsulotlarini sotuvchi kompaniyalar;

– Turar joy xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar (dam olish uylari, mehmonxonalar, motellar va boshqalar);

– Umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran, kafe, oshxona va boshqalar);

– Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi transport korxonalari;

– Reklama va axborot tashkilotlari;

– Xordiq chiqarish maskanlari (kino, teatr, konsert zallari, sport inshootlari va hokazo);

– Tijorat yoki ijtimoiy asosda ziyorat turizmiga ixtisoslashgan davlat korxonalari.

Har qanday turizm yo'nalishini asosiy omillar majmuasisiz: kapital, texnologiya, kadr va resurslarsiz yo'lga qo'yish mumkin emas. Bu holatda o'ziga xos va muhim omil bo'lib ziyorat turizmi resurslari xizmat qiladi. Turistik resurslar – turistik mahsulorni shakllantirish va talablarga javob beradigan tabiiy va texnogen obyektlar yig'indisidir [12]. Turistik resurslarning mavjudligi mintaqada turizmni tashkil etish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Ziyorat turizmini tizim sifatida tahlil qilish sohani hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy darajalarda vujudga keladigan munosabatlarini rivojlantirishga, turizm jarayoni subyektlari va obyektlari o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sirga erishishga, shu bilan bir qatorda, marketing muammolarini hal qilishga imkon beradi [14; 15]. Bundan tashqari sohada muvaffaqiyatli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga bevosita o'z hissasini qo'shadi.

Ziyorat turizmini yo'lga qo'yishga tizimli yondashuv mahalliy va mintaqaviy darajada yangi texnologiya sifatida yondashish mumkin. Birinchidan, ziyorat turizmi ma'lum bir hududda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy sohalar majmuasiga kiritilishi mumkin. Ikkinchidan, ziyorat turizmi mahsuloti tarkibiga faqat ma'lum bir manzilda ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar kiritiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sharoitida ijtimoiy hamjamiyat mahalliy turizm tizimini samarali boshqarishga intiladi.

Mazkur tizimni yaratishda ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi, o'zaro aloqada bo'lgan barcha subyektlar: hududiy rejalashtirish markazlari mutaxassislari, shaharsozlar, arxitektorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar, geograflar, monitoring va muvofiqlashtiruvchi mahalliy tashkilotlar turistik resurslarni aniqlash va ularni samarali boshqarish jarayonida faol ishtirok etishlari lozim. Ushbu chora-tadbirlar kompleksi mahalliy turizm tizimi xalqaro turizm bozorlariga chiqishni rejalashtirayotgan sharoitda ayniqsa muhimdir.

Shuning uchun, ziyorat turizmiga tizim sifatida yondashish uning rivojlanishini baholash va oldindan prognoz qilish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, yuqori sifatli turistik mahsulotni yaratish hamda turistik bozorda ziyorat turizmi tizimini boshqarishning tashkiliy shakllarini va turistik mahsulotni ilgari surish usullarini oshirishga imkoniyat yaratadi, turistik taklif moddiy va nomoddiy resurslar majmuasi, ziyoratchilar tomonidan foydalaniladigan tuzilmalar, infratuzilmalar va xizmatlar majmuini, funksional aloqalarning xususiyatlari va mazkur elementlarning o'zaro ta'siri tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi (<https://president.uz/oz/lists/view/6763>)
2. Черевичко, Татьяна Викторовна. Туризм как система: методология исследования. Концепт 7 (2015): 6-10.
3. Швец, Юрий Юрьевич. "Основные подходы к характеристике сферы туризма, как системы." Армия и общество
4. Tuxliyev, I., Nayitboyev, R., Safarov, B. S., & Tursunova, G. R. (2012). Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. T.
5. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. –
6. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты. Современные проблемы науки и образования 6 (2014): 572-572.
7. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма. Символ науки 10-3 (2016): 192-194.
8. Худояров А. Ўзбекистонда зиёрат туризмиди ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари: Монография / Тошкент: ООО "Complex Print", 2021. -304 б.
9. Концепции, определения и классификация для статистики туризма: Техническое пособие No 1: Рекомендации по статистике туризма ВТО. Всемирная туристская организация. Мадрид, 1995. С. 126.
10. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son <https://lex.uz/ru/docs/-4428097#-4428960>
11. Navarro, Diego. "Tourist resources and tourist attractions: Conceptualization, classification and assessment." Cuadernos de Turismo 35 (2015): 481-484.
12. Gjorgievski, Mijalce, Saso Kozuharov, and Dejan Nakovski. "Typology of recreational-tourism resources as an important element of the tourist offer." UTMS Journal of Economics 4.1 (2013): 53-60.
13. Астанакулов О., & Сохибова, М. (2023). ХАЛҚАРО ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ДИНАМИКАСИ ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(5), 346–353. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/%x
14. Abdurakhmanova G.K. et al. Tourism 4.0: opportunities for applying Industry 4.0 technologies in Tourism. // Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2022. С. 33-38.
15. Астанакулов О., Фойипназаров С. "Туризм 4.0": "Саноат 4.0" технологияларини туризм соҳасида қўллаш имкониятлари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a51. // *Iqtisodiyot va ta'lim*. 2022. Т. 23. №. 3. С. 330-337